



## ANALYSIS OF SOURCES OF ABU LAYTH SAMARQANDI'S WORK "AL-ASILA WAL AJWIBA"

**Gulsunkhon B. Tillyabaeva**

*Free researcher (PhD)*

*Center of Islamic Civilization of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [gulsunxon@gmail.com](mailto:gulsunxon@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** History, scientific heritage, Islamic, Science and culture, Abu Layth Samarqandi, Fiqh, Imamul-huda

**Received:** 20.10.24

**Accepted:** 22.10.24

**Published:** 24.10.24

**Abstract:** It is still important to study the rich scientific heritage of the scholar of our country, who is also known by the titles of Abu Layth Samarkandi Al-Faqih, Imamul-Huda, Sheikhul Islam. Among his scientific works, the work "Al-Asila Wal Ajwiba" has special attention. This work is extremely perfect in the field of jurisprudence of Islam.

## ABU LAYS SAMARQANDIYNING "AL-AS'ILA VAL AJVIBA" ASARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

**Gulsunxon Tillyabaeva**

*Mustaqil tadqiqotchi, (PhD)*

*Islom sivilizatsiya markazi*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [gulsunxon@gmail.com](mailto:gulsunxon@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Abu Lays Samarqandiy, Fiqh, Tarix, allomalar, ilmiy meros, Islom Madaniyati, manbashunoslik, "Al-As'ila Val Ajviba" asari, Imomul-Huda, Sheyh-ul-Islom

**Annotatsiya:** Abu Lays Samarqandiy Al-Faqih, Imomul-huda, Shayxul Islom, unvonlari bilan ham mashhur yurtimiz allomaning boy ilmiy merosini o'rganish hozirgi kunda ham ahamiyali- dir. Uning fiqhiy asarlar orasida "Al-Asila Val Ajviba" asari alohida e'tiborga ega. Bu asar allomaning fiqh ilmiy jihatdan nihoyatda mukammal yaratilgan. Bugungi kunda allomaning "Al-Asila Val Ajviba" asari bir nechta qo'lyozma nusxalari ham mavjud.

**АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ РАБОТЫ АБУ ЛАЙСА САМАРКАНДИ «АЛЬ-АСИЛЯ ВАЛ АЖВИБА»****Гульсунхон Тиллябаева***Свободный соискатель (PhD)**Центр Исламской цивилизации**Ташкент, Узбекистан**E-mail: [gulsunxon@gmail.com](mailto:gulsunxon@gmail.com)*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Абу Лайс Самарканди, “Аль-Асьлия Валь Аджвиба”, история и культура ислама, фикх, научное наследие, источник исламской юриспруденции, Шейх- ул-Ислам.

**Аннотация:** Изучение богатого научного наследия учёного нашей страны, известного также под титулами Абу Лайса Самарканди «Аль-Факих», «Имам-уль-худа», «Шейх-уль Ислам». Среди его научных работ особое внимание уделяется работе «Аль-Асия валь Аджвиба» которая написана в виде вопросов и ответов. Сегодня существует несколько рукописных копий “Аль-Асьлия Валь Аджвиба”. В данной статье изучается богатое научное наследие учёного и его труд «Аль-Асьлия валь Аджвиба», также некоторые вопросы и ответы этого произведения.

---

**INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/КИРИШ**

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” asosida barcha sohava tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmogda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, hususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashni yuksaltirish, ularning qalbida ona Vatanimiz hamda xalqimizga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish, barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmogda, buni hattoki davlat siyosati darajasida ko‘tarilib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi PQ-3721 sonli qarorda ham ko‘rishimiz mumkin.

Qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g‘oyalarga asoslangan boy ma‘naviy merosi umubashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e‘tirof etiladi.

Ulug‘ ajdodlarimizning aql-zakovati va badiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, hususan, matematika, minerologiya, kimyo, tibbiyot, tarix, adabiyot, san‘at, madaniyat, ilohiyot, falsafa, din va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ajdodlarimiz merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish

yuzasidan amalga oshirilayotgan ezgu ishlar O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish, yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimiz qadimdan ilmu ma'rifat markazi, madaniyat o'chog'i bo'lib kelgan bo'lib, shu yerda yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo'shgan bebaho hissasi dunyo olimlari hamda jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e'tirof etiladi. Yurtimizdan islom ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk muhaddisu faqihlar, mutasavviflar, ijodkorlar yetishib chiqqan. Abu Lays Samarqandiy shular sirasiga kiruvchi buyuk allomadir.

Ulug' allomalarning ma'rifiy merosida birgina hadis yoki fiqh ilmi bo'yicha ma'lumotlarni emas, balki islom ilmlari bo'yicha keng doiradagi yondashuv, chuqur ilmiy-adabiy qarashlarni ko'ramiz. Jumladan, samarqandlik mashhur alloma Abu Lays Samarqandiy va uning ismi Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim Xattob Samarqandiy Tusiy Balxiy bo'lib, boshqa bir xabarda Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad (yoki Muhammad) ibn Ibrohim Samarqandiy bo'lib ham kelgan.

Abu Lays Samarqandiyning tavalludi va vafoti yillari borasida turlicha ma'lumotlar bor. Vafotlariga qiyosan, hijriy 301-310yillarda tug'ilganlar, deyiladi. Vafotlari ham turlicha – hijriy 375, 393, 396 yillar deb qo'rsatilgan. 396 (milodiy 1003)yil haqiqatga yaqinroq. Abu al-Lays as-Samarqandiy (944-hijriy 983-h.) 10-asrning ikkinchi yarmida yashagan hanafiy faqih va Qur'on sharhlovchisi. U ilohiyot va huquqshunoslik bo'yicha turli kitoblar, jumladan, "Bahr al-Ulum", "Tafsir as-Samarqandiy" nomi bilan ham mashhur bo'lgan Qur'on tafsiri va "Tanbih al-Gofilin" kitoblarini yozgan. Olim huquqshunoslik mahoratidan tashqari, Qur'on tafsiri va bu mavzularga meros qolgan adabiy merosga ega ilohiyotchi edi. U taqvo va zohidlikka nasihat va nasihatlariga oid asarlari, ya'ni "Tanbih al-G'ofiliyn" va "Buston" nomli asarlari bilan musulmon olamida mashhur.

#### **METHODS/ МЕТОДЫ / ТАДҚИҚОТНИНГ УСУЛЛАРИ**

Olimning tafsir ilmidagi faoliyati ham salmoqli, u o'z davrida birinchi marta Qur'oni tafsir qilishda nafaqat Qur'oni Karim, hadislar, shuningdek, o'zidan oldingi sahobiy va tobe'inlarning so'zlariga tayanganholda tafsir qilindi. Abu Lays Samarqandiyning didaktik asarlari orasida "Tanbehe-l-g'ofiliyn" va "Bo'stonul orifiyn" ko'p asrlar davomida qayta nashr etilgan. Allomaning mashhur asarlari "Bahrul-ulum" (Ilm ummoni), "Hizonatul fiqh" (Huquqshunoslik hazinasi), "Bo'stonul orifiyn"(Oriflar bo'stoni), "Tanbehul g'ofiliyn" asarlar orasida "Al-Asila Val Ajviba" asari alohida e'tiborga ega. Bu asar allomaning fiqh ilmiy jihatdan nihoyatda mukammal yaratilgan.

**RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ/ НАТИЖАЛАР**

Bugungi kunda allomaning “Al-Asila Val Ajviba” asari bir nechta qo‘lyozma nusxalari ham mavjud. Istambuldagi Nafez Posho nusxasi 860 raqami ostida, folio 30. Istanbul univaestiteti 190 maqola, 158-220; 1161 h. Ahmad Posho 2/149, 45-83-betlar, 1000 hijriy; Milliy kutubxona 4/4181/A, varaqlar 45-67, hijriy 1129 kabi qo‘lyozma nusxalari mavjud.

t.f.n. Haydarxon Yo‘ldoshxo‘jaevning “Al-Asila Val Ajviba” asari tarjimasidan parchasini tarjimasini misol tariqasida tarixiy mavzulardan Muso payg‘ambarining mo‘jizasi haqidagi savol javobdan misol keltirsak:

Savol: Agar biror kishi Alloh taolo bandalarning barcha sirlarini biluvchi bo‘lsa, o‘zlari va ularning qilgan ishlaridan xabardor bo‘lsa nima uchun Muso alayhissalomdan “Ey Muso, anavi yonboshingdagi narsa nima?”- deb so‘radi. Shunda Muso alayhissalom “bu mening hassam, unga suyanaman, u bilan qo‘ylarimni haydayman” – deb javob qildi.

Javob: To‘g‘ri, Alloh taolo uning hassa ekanini bilardi, lekin Muso alayhissalom hassaning ilonga aylanishini bilmas edilar. Shuning uchun Alloh taolo Muso alayhissalomda aniq ishonch va ilm bo‘lishi va u ilonga aylanganda qo‘rqib ketmasligi uchun ko‘rsatib qo‘yishni iroda qildi. Bilmadingmi, hassa ilonga aylanganda Muso alayhissalom qo‘rqib ketgan edi Alloh taolo unga “Qo‘rqma, sen omonda bo‘lganlardansan” - dediku. Agar shunday demaganida edi, Muso alayhissalom Fir‘avning vajohati va ilondan qo‘rqib o‘lib qolgan bo‘lardi.

Savol: Nima uchun hassa boshqa narsaga emas aynan ilonga aylandi?

Javob: Chunki Muso alayhissalomning o‘zi “unga suyanaman, u bilan qo‘ylarimni haydayman” deganidek, barcha ishonchi, suyanchi ilonga edi. Alloh taolo hassani bizga, ya’ni odamzodga Odam alayhissalom davridan dushman bo‘lib kelgan va qiyomatga qadar shunday bo‘lib qoladigan ilonga aylantirdi. Alloh taolo Muso qochsin deb shunday qildi va bu bilan “ol uni, qo‘rqma, sen yaxshi ko‘rgan har bir narsang senga dushman bo‘lishi mumkin” – dedi. Alloh taoloning oyatda “Ayollaringiz va farzandlaringizdan sizlarga dushmanlar bordir” – deganini bilmaysanmi.

Savol: Nega Muso alayhissalom ilondan qo‘rqdiyu Ibrohim alayhissalom olovdan qo‘rqmadilar?

Javob: Hassaning ilonga aylanishi Alloh taoloning ishi edi, olov yoqilishi esa odamzod – Namrudning ishi edi. Ilon bilan olov shu jihatdan farqlanadi.

Yana bir qo‘shimcha, Muso alayhissalomning ilondan qo‘rqishining sababi otamiz Odam alayhissalom ilon tufayli jannatdan chiqarib yuborildi. O‘sha paytda ilon jannatning darvozabonining o‘rinbosari edi. Iblis jannatdan quvilib, Alloh taoloning la’natiga duchor bo‘lgach ilonning og‘ziga kirib oladi. Ilon darvozabon noibi sifatida jannatga kirgan paytda Iblis ham uning og‘zida kiradi va o‘sha joyda turib Odam va Havvoni aldaydi. Iblis: “Alloh taolo seni

jaannatdan chiqarvoradi. Agar bu yerda abadiy qoladigan bo‘lganingda Alloh taolo seni mana bu daraxt mevasidan yeyishdan qaytarmagan bo‘lardi” – deydi. Odam alayhissalom ilon gapirayapti deb o‘ylab, ta‘qiqlangan daraxt mevasidan yedilar. Natijada ularning ustilaridagi parda tushib ketdi. Olovda esa bunday ma‘no, mazmun yo‘qligi uchun Ibrohim alayhissalom undan qo‘rqmadilar.

### **DISCUSSION/ ОБСУЖДЕНИЕ/МУҲОКАМА**

“Al-Asila Val Ajviba” asari shu tariqada savol-javob tarzida yozilgan. Abu Lays Samarqandiy “Al-Asila Val Ajviba” asarida unga berilgan fiqhiy, aqidaviy, tarixiy mavzularda savol-javob tarzida yozilgan. Asarda 50 dan ziyod turli masalalar bo‘yicha savollarga javob berilgan.

“Al-Asila Val Ajviba asarida berilgan barcha nasihatlar, o‘gitlar va ma‘lumotlar hozirgi yoshlarning ma‘rifatiga ham xizmat qiladi. Chunki, asar insonning ijtimoiy hayotda yanada madaniyatli va yetuk shaxs bo‘lishi uchun bilishi kerak bo‘lgan barcha bilimlarni o‘zida mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir. Alloma islom dinining asl mohiyati, maqsadini tushuntirishda, uni tadqiq qilishda, yo‘l qo‘yilgan xatolar, chalkashliklardan tozalashda, uning insoniyat takomilidagi o‘rnini ko‘rsatib berishda ulug‘ xizmatlar qildi. Shu bois yaratgan asarlari ko‘p asrlardan beri xalqimizning ma‘naviy mulki bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin ulug‘ ajdodlarimiz, allomalarimiz nomlari, meroslari qayta tiklandi. Ana shular orasida Abu Lays Samarqandiy ham bor. Alloma asarlaridan birida “Yozganlarimni odamlar asrlar osha o‘tib o‘qisalar, bu ilm-fanga muhabbatlari nishonasi bo‘ladi”, deb yozgandi. Bugungi kunda uning asarlari nafaqat yurtimizda, dunyo miqyosida ham tadqiq qilinmoqda. Bu ulug‘ alloma merosi bilan birgalikda ilm-fanga ham ehtirom ifodasidir.

### **CONCLUSION/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ХУЛОСА**

Xulosa qilib aytganda, Abu Lays Samarqandiyning asarlarining mazmun-mohiyatini, o‘gitlarini yoshlarimizning qalbiga singdira olsak, yoshlarda bag‘rikenglik ongi, tafakkuri va xulq odobini chiroyli shakllantirishga yordam beradi. Yurtimizda buyuk mutafakkirlarni va ulamolarni ilmiy merosini o‘rganish masalasini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda uning asarlari nafaqat yurtimizda, dunyo miqyosida ham tadqiq qilinmoqda. Bu ulug‘ alloma merosi bilan birgalikda ilm-fanga ham ehtirom ifodasidir. Yurtdoshlarimizga mamlakatimizning boy tarixi, Abu Lays Samarqandiyning ilmiy merosi haqida yetarli ma‘lumot berish va ilmiy jihatdan o‘rganish zarur.

Darhaqiqat, Abu Lays Samarqandiy tomonidan yozilgan manbalar islomning asl qadriyat va tamoyillarini hamda insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etishda, zamonlar osha yuksak qadr-qiyamatga ega bo‘lib borayotgan asarlarning tub mohiyatini ochib berishda muhim dasturilamaldir.

O‘zbek tilida taqdim etilgan mazkur asarlar mutafakkirlarimiz ilmiy qarashlari ma’nosini yanada yaxshiroq anglashga, ular ta’limotini chuqurroq tushunishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**REFERENCES/ СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/ Фойдаланилган  
АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi PQ-3721-son qaror, <https://lex.uz/docs/4887792>
2. Abu Lays Samarqandiy. Tanbehu-l-g‘ofilliyn. Tarjimon: Dilmurod Qushokov, - T.:2000
3. Khizanat Al-Fiqh By Nasr Ibn Muhammad Abu Al-Layth Al-Samarqandi copied 1076 AH/1665 AD. Reference: ART3003924 <https://www.orientalartauctions.com/object/art3003924-khizanat-al-fiqh-by-nasr-ibn-muhammad-abu-al-layth-al-samarqandi-copied-1076-ah-1665-ad>
4. Muḥammad Amīn Ibn ‘Ābidīn, Sharḥ ‘Uqūd Rasm al-Mufṭī, Karachi: Qadīmī Kutub Khānā, n.d., p. 10.
5. “Abu’l-Layṭ Samarqandī,” Encyclopædia Iranica, I/3, pp. 332-333; (accessed on 31 January 2014). an updated version is available online at <http://www.iranicaonline.org/articles/abul-lay-nasr-b>
6. Абдуллаев А. Роль Абу Лайса Самарканди в комментарии Мовароуннахра: дис. канд. ист. наук. — Ташкент: Ташкентский исламский университет, 2007. — С. 56—61.
7. Qur’oni Karim: Ma’no va sharhlar tarjimasi, Kuliev E.R. “Eksmo” nashriyoti, 2020. (Tag‘obun surasi, 14 oyat)
8. “Al-As’ila Val Ajviba” asaridan matn tarjimasi t.f.n. Haydarxon Yo‘ldoshxo‘jaev Kamol Matyoqubov. Samarqandlik Abu Lays haqiqatlari. “Jamiyat” jurnali No7/2019